
Hokim qabuli: Har bir murojaat – e'tiborda!

Bugun tuman xalq qabulxonasida tuman hokimi S. Soliev jismoniy va yuridik shaxslar uchun navbatdagi qabulini o'tkazdi. Qabulda hokim fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlarini birma-bir tingladi.

Ochiq va samimiy muloqot tarzida kechgan qabulda Xalq qabulxonasi mudiri S. Dodoboev, sektor rahbarlari va tumandagi mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirokida uy-joy, moddiy yordam, bandlik, tadbirkorlik va boshqa masalalarga oid murojaatlar kelib tushdi. Muammolar bo'yicha tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rildi. Qabulda 30 nafar fuqarolar ishtirok etib, shulardan 10 nafarining masalasi ijobiy hal etildi. 10 ta masalaga huquqiy tushuntirish berilib, qolgan masalalar ijroga qaratildi. Ta'kidlangandek, har bir murojaat asoslicha o'rganilib chiqiladi va qonuniy yo'l bilan yechimini topadi.

2022-06-02 15:02:00